

BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARINI TASHKIL QILISHDA NUTQ XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI

Yakubova Safiya Hamdamovna,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida assistenti
safiyyakubova1231@gmail.com

Sattorova Orasta Shavkat qizi,
SamDU Urgut filiali 2-bosqich talabasi
sattorovaorasta994@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada to'g'ri nutq madaniyati, o'qish darslarini tashkil qilishda to'g'ri nutqning o'ziga xos tomonlari xususida fikr yuritilgan nutqiy va imloviy savodxonlikni oshirib borish, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari, ahamiyati va maqsadi haqida mavzu yoritilgan.

Kalit so'zlar. Nutqning to'g'riligi, to'g'ri nutqning o'qish darslarini tashkil qilishdagi o'rni urg'u me'yorlari, grammatik me'yor, adabiy til, me'yorlari.

ILKOKUL OKUMA DERSLERININ ORGANIZASYONUNDA KONUŞMA ÖZELLİKLERİNİN ÖNEMİ

Yakubova Safiya Khamdamovna,
Sharof Rashidov'un adini taşiygan SamDU Urgut şubesi
yabancı diller öğretim yöntemleri bölümü asistanı

Sattorova Orasta Shavkatovna,
Semerkant devlet üniversitesi Urgut şubesi öğrencisi

Özet. Makalede doğru konuşma kültürü konuları, okuma derslerinin düzenlenmesinin özellikleri, konuşma ve dilbilgisi okuryazarlığının gelişimi, güncel sorunlar, ilkokulda ana dili öğretimi metodolojisinin önemi ve hedefleri ele alınmaktadır.

Anahtar kelimeler. Konuşmanın doğruluğu, okuma dersinin düzenlenmesinde doğru konuşmanın rolü, vurgu normları, dil bilgisi normları, edebi dil, normlar.

ЗНАЧЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕЧИ В ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Якубова Сафия Хамдамовна,
ассистентка кафедры методики преподавания иностранных языков
филиала СамДУ Ургут имени Шарофа Рашидова

Сатторова Ораста Шавкатовна,
студентка Ургутского филиала СамГУ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы культуры правильной речи, особенности организации уроков чтения, развития речевой и грамматической грамотности, а также актуальные проблемы, значение и цели методики обучения родному языку в начальных классах.

Ключевые слова. Правильность речи, роль правильной речи в организации уроков чтения, акцентные нормы, грамматические нормы, литературный язык, нормы.

THE IMPORTANCE OF SPEECH FEATURES IN ORGANIZING READING LESSONS IN PRIMARY SCHOOLS

Yakubova Safiya Khamdamovna,

*branch of SamDU Urgut named after Sharof Rashidov
assistant at the Department of Methods of teaching foreign languages*

Sattorova Orasta Shavkatovna,

student, of the Urgut branch of Samarkand state university

Abstract. *The article examines the issues of correct speech culture, the specifics of organizing reading lessons, developing speech and grammatical literacy, as well as current issues, the importance and goals of the methodology of teaching the native language in elementary grades.*

Keywords. *Correctness of speech, the role of correct speech in organizing reading lessons, accent norms, grammatical norms, literary language, norms.*

Jahonda ilm-fan, texnika, iqtisod sohalari taraqqiyotining jadallashuvi, axborot tizimining globallashuvi, tezkor axborot olish, yaratish va uzatish zaruriyati bois bugungi kun o'quvchisida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish til ta'limining bosh ustuvor vazifasiga aylandi. Shu nuqtai nazardan ona tili ta'limida o'quvchilarning lingvistik, xususan, til va nutq birliklari hamda hodisalarini anglash, tushunish, tahlil qilish va faoliyatda to'g'ri, maqsadli, aniq qo'llashga doir pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.[3, 56.]. Til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his, kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning manashu asosiy vazifalaridan kelib chiqadi.

Ona tili o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, shuningdek o'qitishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi uni bartaraf etish usullarini topadi.

Nutqiy va orfografik tipik xatolarni tekshiradi, uni oldini olish chora tadbirlarini belgilaydi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida, asosan bolalarning nutqini o'stirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar nutqini o'stirishdan tashqari, ona tilidan elementer nazariy tushunchalarni amaliy o'zlashtirishlari ham nazarda tutiladi. Metodika bolalarning nutqini boyitishni, sintaktik va bog'lanishli nutqini o'stirishni ham ta'minlashi kerak.

XX asrning 2-yarmida boshlang'ich sinf metodikasida badiiy asarga estetik jihatdan yondashib san'at asari sifatida o'rganish g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, psixologik izlanishlar kichik yoshdagi o'quvchilarning potentsial qobiliyati adabiyot dunyosini tanishtirishga boshqacha yondashish kerakligini taqozo etmoqda. Jumladan, N.N.Svetlovskaya o'quvchining mustaqil o'qish nazariyasini ishlab chiqqan bo'lsa, Ye.A.Adamov, M.S.Vasileva, V.G.Goretskiy, M.I.Omorokov, T.G.Ramzaeva va boshqalar badiiy asarning shakl va mazmunini tahlil qilish, L.A.Gorbushina, O.V.Kubasova, L.N.Mali, L.V.Nefedova va boshqalar ishlab chiqqan metodikada o'quvchilarning ijodiy ishlariga, ayrimlar esa o'qish texnikasini rivojlantirish zarurligini qayd etdilar. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim metodikasi metodik fan sifatida shakllanish bosqichlarini bosib otdi. [4, 16.]. Ushbu masalada yurtimiz olimlaridan R.Safarova, U.Musaev, P.Musaev, F.Yusupova, R.Nurjanova, M.Yo'ldoshev, S.Usmonov kabilar ilmiy ishlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Har bir davlatning ta'lim sohasida bolalarda nutq o'stirish tizimining asosiy tarkibiy elementi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekistonda ham uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichlari – maktabgacha va boshlang'ich ta'lim davrida bolalarda nutqni o'stirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishi etib belgilangan. Global axborotlashuv va innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi, inson rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning

ortishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va priyomlarni qo'llash tushuniladi. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki va yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodallasagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti –nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. [4, 122.].

Bular:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari bolalarning o'qish malakasini shakllantirish, so'z boyligini oshirish va matnni tushunish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Odatda, bu darslar 1-sinf dan 4-sinf gacha davom etadi va bosqichma-bosqich murakkablik darajasi oshirib boriladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining asosiy maqsadlari: Harflarni o'rgatish va ularni tovushlarga bog'lash, so'zlarni to'g'ri va ravon o'qish qobiliyatini shakllantirish, matnni tushunish va asosiy fikrni ajrata olishni o'rgatish, so'z boyligini kengaytirish va nutq madaniyatini rivojlantirish, mustaqil o'qishga qiziqish uyg'otishdir. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil qilishda to'g'ri nutqning o'rni ortgani sari nutq ham jilolanib boradi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil qilishda to'g'ri nutqning ahamiyati juda katta. Bu bosqichda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, fikrini aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. To'g'ri nutq bolaning fikrlash darajasini, o'qilgan matnni tushunish qobiliyatini va muloqot madaniyatini oshiradi. O'quvchi o'qigan matnni to'g'ri talaffuz qilganida, uning ma'nosini yaxshiroq anglaydi. Bu, o'z navbatida, o'qish tezligi va samaradorligini oshiradi. To'g'ri nutq orqali bola o'z fikrini ravon va mantiqan bayon qilishni o'rganadi. Bu esa insho yozish, savollarga javob berish va bahs-munozaralarda faol qatnashishda yordam beradi. O'qish darslarida turli so'zlar va iboralarni o'rganish bolalarning so'z boyligini oshiradi va ularni to'g'ri ishlatishni o'rgatadi. To'g'ri talaffuz, ohangdorlik va ifodali o'qish bolalarda nutq madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa muloqot jarayonida o'zini erkin tutish va fikrini to'g'ri yetkazish ko'nikmasini beradi. To'g'ri va ravon gapira oladigan bolalar do'stlar bilan muloqot qilishda ishonchliroq bo'lishadi. Bu ularning ijtimoiy muhitga moslashishida yordam beradi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq ham mantiqiy ham maqsadga muvofiq ham bo'lmaydi. Nutqning to'g'ri bo'lishi dastlab uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi bilan hisoblanadi. Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan ikki me'yorga ya'ni urg'u va grammatik me'yorga amal qilishni talab qiladi. Urg'u meyorlari bu so'z yoki gapdagi ma'lum bir bo'g'inga ohang jihatidan ko'proq e'tibor qaratilishi yoki ta'kid bilan talaffuz qilinishidir. urg'u nutqning ravonligini ta'minlash, ma'noni to'g'ri yetkazish va nutq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Grammatik meyorlar esa bu tilning so'z tuzish, so'zlarni bog'lash, gap tuzish va ularni ma'noli muloqotda ishlatish qoidalarini belgilovchi normalardir. Ular nutqni tushunarli, aniq va adabiy til qoidalariga mos qilishga xizmat qiladi. Grammatik me'yorlarga

rioya qilish orqali yozma va ogʻzaki nutqdagi xatolarni oldi olinadi. Nutqning toʻgʻri boʻlishi barcha soha mutaxassislari uchun ham muhimdir. Ayniqsa oʻqituvchilar va oʻquvchilar uchun muhimdir. [7. 129.]. Oʻqituvchilar oʻquvchilarning turli tildan kirib kelgan atamalarini ishlatishda, urgʻuni toʻgʻri qoʻllashlari, oʻz fikrni tushunarli va aniq yetkazish, nutq madaniyatini shakllantirish uchun muhimdir. Nutqning toʻgʻri ravon boʻlishi uchun quyidagi metodik tavsiyalarimiz mavjud:

- oʻqish darslariga mos koʻrgazmali qurollar tayyorlash;
- oʻquvchilarni ogʻzaki nutqqa jalb qiluvchi savol-javob metodidan dars jarayonida foydalanish;
- toʻgʻri talaffuz va urgʻuga eʼtibor qaratish uchun oʻquvchilarga matnlar oʻqib berish;
- dars jarayonida audio va video materiallardan foydalanish;
- oʻquvchilarga toʻgʻri talaffuzga rioya qilish boʻyicha malumotlar berish;
- oʻquvchilar nutqini rivojlantirish uchun sinfda munozara uyushtirish, oʻquvchilarni fikrlarini bilish;
- oʻquvchilar matn mazmunini oʻz nutqi bilan hikoya qilishiga oʻrgatish;
- matnni davom ettirish yoki oʻzgartirib qayta hikoya qilish topshiriqlarini berish;
- oʻquvchilarga sheʼr yoki hikoyani ifodali oʻqish va tahlil qilish topshiriqlarini berish;
- qiziqarli hikoya yoki maqolalar orqali toʻgʻri talaffuz va nutq madaniyati shakllantirish;
- rolli oʻyinlar yordamida nutqiy mahoratni rivojlantirish.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari nutqida oʻstirishda yod oldirish, soʻzlarning maʼnosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat boʻlgan oʻyinlardan foydalanish, ayniqsa, koʻzlangan maqsad, yuqori natijalarni qoʻlga kiritishda katta yordam beradi. Chunki oʻyin kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar faoliyatida asosiy oʻrinni egallaydi. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqib aytadigan boʻlsak, oʻyin dunyoni va oʻzlikni anglashda, bogʻlanishli nutqni oʻstirishda asosiy vosita hisoblanadi. Tajribalardan maʼlumki, oʻqituvchining nutqi oʻquvchilarni oʻziga ergashtirib, ularda ham yoqimli nutq madaniyatini tarbiyalaydi. Bolalar nutqini rivojlantirishda xalq ogʻzaki ijodining ahamiyati katta. Shuning uchun "Oʻqish kitobi" da "Ertaklar yaxshilikka yetaklar" boʻlimi berilgan. Unga kiritilgan ertaklar bolalarni obod - axloqqa oʻrgatishi, maʼnaviy jihatdan rivojlanishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Masalan, "Ur toʻqmoq" ertagidagi dehqon va boy obrazlari oʻquvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosil qiladi. Maqtanchoqlik, adolatchilik, ochkoʻzlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, doʻstga mehribon boʻlish, rostgoʻylik insonning maʼnaviy yuksalishga yordam berishi uqtiriladi. Bolalarda ikkita jadval tuzishga tayyorlanishlari aytiladi. Birga yaxshilikka doir soʻzlar, ikkinchisiga esa uning aksi boʻlgan soʻzlar yozish taʼkidlanadi [5, 137.]. Oʻquvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdagi bolalar mehribon, saxiy, shirinsoʻz, yoqimli, goʻzal, chiroyli, mehnatkash, eʼtiborli, kamtar, aqlli, bilagʻon kabi soʻzlar topsalar, ikkinchi guruh bolalar yomon, xunuk, qoʻpol, yolgʻonchi, ayyor, toʻpolonchi, tartibsiz, xasis, qizgʻanchiq kabi soʻzlarni aytadilar.

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkin, boshlangʻich sinflarda oʻqish darslarini tashkil etishda toʻgʻri nutqning rivoji oʻquvchilarning bilim olish jarayonida muhim rol oʻynaydi. Toʻgʻri va ravon nutq orqali ular matnni yaxshiroq tushunadi, fikrlarini aniq ifodalaydi va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu jarayon bolalarning soʻz boyligini oshirish, mustaqil fikrlash va yozma hamda ogʻzaki nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Toʻgʻri nutq oʻquvchilarga matn mazmunini chuqur tushunish, soʻz boyligini oshirish va ijodiy tafakkurni shakllantirish imkonini beradi. Oʻqish darslarida toʻgʻri nutqni shakllantirish va rivojlantirishga alohida eʼtibor berish oʻquvchilarning kelajakdagi taʼlim va hayotdagi muvaffaqiyatlariga asos boʻlib xizmat qiladi. Nutq oʻquvchilar tafakkurini oʻstirishda muhim vositadir. Nutq fikrini bayon etish vositasigina boʻlibgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni oʻstirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli oʻstirish mumkin. Shuning uchun oʻquvchilar nutqini oʻstirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Q. Nutq o'qitirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. 66-bet.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti. 2001-y.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti. 2006-y.
4. Hasanov U. Nutq madaniyati va ifodali o'qish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2018.
6. Jo'raev N. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
7. Karimova M. Boshlang'ich sinflarda badiiy matn ustida ishlash. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
8. Mamatova S. Nutq madaniyati va ifodali o'qish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2018.
9. Qodirova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish. – Toshkent: Noshir, 2019.
10. Qodirov N., Yuldashev M. Nutq madaniyati va til o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
11. Rashidova D. Boshlang'ich sinflarda badiiy matn ustida ishlash. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
12. G'ofurova M. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.